| | akademik litseylarda yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarini o‘tkazish reja grafigini ishlab chiqish;<br>imtihon materiallarini davlat ta'lim standartiga muvofiq tegishli fanning o.quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>yakuniy davlat attestatsiyasiga o‘quv reja va dasturlarining barcha talablarini to‘liq bajargan o‘quvchilarning qo‘yilishini nazorat qilish;<br>yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi o‘z ishini to‘laqonli bajarish uchun barcha shart sharoitlar yaratish;<br>yakuniy davlat attestatsiyasini mazmunan sifatli, yuqori saviyada, shaffof va adolatli o‘tkazilishini ta’minlash;<br>bitiruvchilarga diplom topshirish marosimini tantanali ravishda tashkil etish va o‘tkazish vazifalari yuklatilsin.<br>Akademik litsey bitiruvchilarining barcha ta'lim yo‘nalishlari bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari quyidagi fanlardan o‘tkazilishi belgilansin:<br>O‘zbekiston tarixi (test);<br>ona tili va adabiyot (insho);<br>ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejadagi ikkita chuqurlashtirib o‘qitiladigan fan.<br>ona tili va adabiyot fanidan yozma ish (insho) imtihoni barcha akademik litseylarda bir vaqtda, joriy yilning 13-iyun kuni o‘tkazilishi ta’minlansin. | | | o‘quv yilida akademik litsey bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish maqsadida:<br>Akademik litseyda yakuniy davlat attestatsiyasini 2-kurs bitiruvchilari uchun joriy yilning 13-iyunidan boshlanishi belgilab olindi;<br>Akademik litseyda 2-kurs bitiruvchilari uchun ona tili va adabiyot fanidan yozma ish (insho) imtihoni joriy yilning 13-iyun kunidan boshlab o‘tkazildi;<br>Akademik litseyda yakuniy davlat attestatsiyasini imtihonlarini o‘tkazish jadvallari tuzildi va tasdiqlandi;<br>Qayd etilgan nizomning 12-bandiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlariga o‘quv reja va dasturlarining barcha talablarini to‘liq bajargan o‘quvchilar kirishiga ruxsat berilgan.<br>Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi o‘z ishini to‘la qonli bajarishi uchun kerakli shart sharoitlar yaratib berildi.<br>Bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini mazmunan sifatli, adolatli, yuqori saviyada o‘tkazilishi ta’minlangan;<br>2-kurs bitiruvchilari uchun imtihon materiallari yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tomonidan ishlab chiqildi va tasdiqlangan.<br>I.B. Xudoyarovaga:<br>Bitiruvchilarga diplom topshirish marosimi 30-iyun kuni tantanali ravishda o‘tkazildi.<br>Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo‘yicha vazirlikka joriy yilning 1-iyuliga qadar ma’lumot taqdim etiladi.<br>Belgilab qo‘yilsinki, akademik litsey bitiruvchilarining ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi fanlardan o‘tkazilishi belgilangan: |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Aniq fanlar-1 yo'nalishi: matematika (yozma), fizika(og'zaki), ona tili va adabiyot (insho) , O'zbekiston tarixi (test);<br>Aniq fanlar-2 yo'nalishi : matematika (yozma), xorijiy til (og'zaki), ona tili va adabiyot (insho), O'zbekiston tarixi (test);<br>Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi tarkibi 1-ilovaga asosan tasdiqlangan. |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 24-maydagi 187-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **20.** | **Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida**<br>2022-yilning 1-iyunidan muassasa va tashkilotlar xodimlarining ish haqi miqdori 12 foizga oshirilsin (ilovaga muvofiq);<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-sentabrdagi 775-son "Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan tarif koeffitsiyentlari asosida xodimlarning ish haqi miqdori o'z vaqtida qayta hisoblab chiqilsin;<br>Mazkur Farmon muassasa va tashkilotlarning jamoalariga yetkazilsin, ish haqi miqdorlarini qayta ko'rib chiqib, ularni o'z vaqtida to'lash ta'minlansin;<br>Farmonga binoan muassasa va tashkilotlar xodimlarining lavozim stavkasi (oylik maosh)larini qayta hisoblashda mazkur buyruqning ilovasi asos qilib olinsin. | 21.06.2022 | **Bosh hisobchi A.Amirov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 534-son (13.06.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PF-138-son "Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022-yil 25-maydagi 274-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universitetining 2022-yil 13-iyundagi 533-son buyrug'i tayyorlandi va 2022-yil 1-iyundan Ma'muriy-boshqaruv, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlar mehnatiga haq to'lash miqdori shtatlar jadvaliga muvofiq 12% ga oshirildi va Shtatlar jadvali tasdiqlandi.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PF-138-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-sentyabrdagi 775-son qarori bilan tasdiqlangan tariff koeffitsientlari asosida, 2022-yil 1-iyunidan boshlab kiritiladigan tarif stavkalari miqdorlari (so'm) xodimlarning ish haqi xisoblandi |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 24-maydagi 188-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **21.** | **Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida**<br>ikki oy muddatda amaldagi normativ va o'quv-metodik hujjatlarni mazkur davlat ta'lim talablariga muvofiqlashtirish;<br>oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari dasturlarini davlat ta'lim talablari asosida ishlab chiqish;<br>qayta tayyorlash va malaka oshirish turlari, shakllari hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish kunlari o'quv yuklamalari hajmini belgilashda davlat ta'lim talablariga qat'iy amal qilish vazifalari yuklatilsin.<br>qayta tayyorlash va malaka oshirish turlari, shakllari hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv yuklamalari hajmini belgilashda davlat ta'lim talablariga qat'iy amal qilish vazifalari yuklatilsin. | 07.06.2022 | **TATU huzuridagi pedagogik kadrlarni tarmoq malaka oshirish markazi direktori F.Zakirova** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 528–son (07.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>Malaka oshirish tarmoq markazining 2022-yil 9-iyundagi 25-d/b buyrug'i qabul qilingan. |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 27-maydagi 192-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **22.** | **Oliy ta'lim muassasalari talabalari (erkak va ayollar) o'rtasida futbol va voleybol sport turi bo'yicha "Vazir kubogi" musobaqalarini o'tkazish to'g'risida.**<br>vazir kubogining oliy ta'lim muassasasi bosqichini (birinchi bosqichi) Nizom talablariga muvofiq o'z vaqtida va yuqori saviyada tashkil etish | **29.06.2022** | **Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi mudiri O.Erdanov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 626–son (29.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>Toshkent shahridagi OTMlar talabalari (erkak va ayollar) o'rtasida futbol va voleybol sport turlari bo'yicha "Vazir kubogi" musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishda |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | va o‘tkazish;<br>oliy ta’lim muassasasi bosqichi (birinchi bosqichi) g‘olibi bo‘lgan talabalarni o‘rnatilgan tartibda taqdirlash va mukofotlash;<br>Nizom talablariga muvofiq, oliy ta’lim muassasasi jamoasini to‘liq tarkibda musobaqaning keyingi bosqichlarida ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rish;<br>hududiy bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini taqdirlash tegishliligicha oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan amalga oshirilishini inobatga olish;<br>hududiy bosqichida g‘olib bo‘lgan talabalarni respublika final bosqichida ishtirok etishini ta’minlash;<br>musobaqalarning oliy ta’lim muassasasi va hududiy bosqichlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin. | | | sportchi va qiziquvchi talabalaridan, universitet jamoasini belgilangan muddatlarda jumladan:<br>Voleybol (erkak va ayollar). Futbol (erkak).<br>I-bosqich (guruhlar aro) 1-5-oktyabr;<br>II-bosqich: (kurslar aro) 10-15- oktyabr;<br>III-bosqich: fakultetlararo oliy ta'lim muassasasi birinchiligi 20-25-oktyabr;<br>IV-bosqich: Voleybol (erkak va ayollar). Toshkent shahar 1-5-noyabr Toshkent davlat transport universitetida TATU jamoasini shakllantirish, ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va musobaqada ishtirok etishini ta‘minlashga mas’ullar “Jismoniy tarbiya” kafedrasi katta o‘qituvchilari Koshbaxtiev Sh.K.,Vasileva Ye.B.<br>Futbol (erkaklar). Toshkent shahar 10-15-noyabr O‘zbekiston milliy universitetida TATU jamoasini shakllantirish ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va musobaqada ishtirok etishini ta‘minlashga mas’ullar “Jismoniy tarbiya” kafedrasi mudiri Erdonov O.L., professor Koshbaxtiev I.A. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 1-iyundagi 195-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |
| **23.** | **Farg‘ona viloyatidagi oliy ta’lim muassasalarini o‘rganish to‘g‘risida.**<br>Ishchi guruh 2022-yil 8-10-iyun kunlari Farg‘ona viloyatiga xizmat safariga yuborilsin. | 10.06.2022 | **Xodimlar bo‘limi boshlig‘i Z.Begmatova** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 71–XS-son (01.06.2022 y) buyruq qabul qilingan va buyruq asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i M.Umurzoqov 2022-yil 8-iyundan 10-iyunga qadar Farg‘ona viloyatiga xizmat safariga yuborilgan. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 10-iyundagi 197-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 24. | **O'quv adabiyotlarini nashr etishga tavsiya berish jarayonini raqamlashtirish to'g'risida.**<br>2022-yil 15-iyundan boshlab oliy ta'lim muassasasining nashr rejasiga muvofiq yaratiladigan o'quv adabiyotlarini Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashi muhokamasiga **adabiyot.edu.uz** elektron platformasi orqali taqdim etilishini ta'minlasin.<br>o'quv adabiyotlarini 2022/2023-o'quv yili boshlangunga qadar mazkur elektron platforma orqali Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga taqdim etadi.<br>**adabiyot.edu.uz** elektron platformasi orqali o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish jarayoniga jalb etilgan professor-o'qituvchilarga zaruriy sharoitlarni yaratish hamda ularni mazkur jarayonda faol ishtirok etishlarini ta'minlash choralarini ko'rsin. | 18.06.2022 | **O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i A.Ergashev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 582–son (21.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabr 60-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalarini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarorining 2-bo'lim b-bandining 4-qismi darsliklar, o'quv va ilmiy adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish tartibini, shuningdek, ularni yetkazib berishga va ulardan ta'lim tashkilotlarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash, shu bilan birga Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son qarorining 3-ilovasiga muvofiq, ya'ni "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yangilab borish tartibi to'g'risida NIZOM"i bo'yicha Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yangilab borish to'g'risida 4 bobdan iborat nizom tasdiqlangan (ilova qilinadi). |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 10-iyundagi 198-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| 25. | **Oliy ta'lim muassasalarida "Kimyo", "Biologiya", "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlari bo'yicha respublika fan olimpiadasini o'tkazish to'g'risida.**<br>professor-o'qituvchilar va talabalarni olimpiada o'tkazish tartiblari bilan tanishtirsin hamda rasmiy sahifalarida e'lon bersin;<br>belgilangan fanlardan o'rnatilgan tartibda ishtirok etuvchi talabalarni onlayn ro'yxatdan o'tishlarini tashkil etsin; | 17.06.2022 | **Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi G.Axmedjanova** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 570–son (16.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>TATU da "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan Respublika fan olimpiadasini o'tkazish tartiblari bilan professor-o'qituvchilar va universitetni bitiruvchi talabalari o'rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. TATU Rasmiy kanalida, TATU Mehnat jamoasi va TATU Rektorat guruhlarida Respublika fan olimpiadasi o'tkazilishi va ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish platformasi bo'yicha e'lon berildi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | olimpiada o'tkaziladigan oliy ta'lim muassasalariga ishtirokchilarning xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda kelib-ketishlarini ta'minlasin;<br>ishtirokchilarning xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda kelib-ketishlariga shaxsan oliy ta'lim muassasasi rahbari mas'ul etib belgilansin.<br>Shuningdek, topshiriqlar bazasini shakllantirish jarayonlariga jalb etilgan professor-o'qituvchilarni belgilangan tartibda bir oylik maoshi miqdorida moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rsin. | | | Olimpiada 2 turda test va amaliy sinov shaklida o'tkazildi.<br>**"Informatika va axborot texnologiyalari"** fanidan respublika fan olimpiadasining 1-turida 57 nafar talabalar guruhlarga bo'linib, soat 10:00 da test jarayonlari boshlandi. Nizom talablariga muvofiq, 1-turga test sinoviga 60 daqiqa vaqt belgilangan. Har bir test sinovlari bo'lib o'tadigan xonalarga kuzatuvchilar biriktirildi.<br>Olimpiadaning test sinovlarida ishtirok etgan 57 nafar talabadan Muvaqqat Nizom talablari bo'yicha 35 baldan yuqori ball to'plagan talabalar 2-turga o'tkazildi.<br>Test sinovlari yakuniga ko'ra 14 nafar talaba 2-turga o'tdi.<br>Apellyatsiya komissiyasiga Olimpiadaning 1-turini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishtirokchilar va ularning vakillaridan hech qanday e'tiroz va shikoyatlar tushmadi.<br>**"Informatika va axborot texnologiyalari"** fanidan respublika fan olimpiadasining 2-turiga o'tgan 14 nafar ishtirokchilarga kerakli yo'riqnomalar berildi, amaliy sinov jarayonlari soat 14:10 da boshlandi. Nizom talablariga muvofiq, 2-turda amaliy sinovga 2 soat vaqt belgilandi. Amaliy sinov jarayonlari o'tadigan xonaga kuzatuvchilar biriktirildi. Ishtirokchilarga bir xil amaliy savol topshiriqlari tarqatildi. Belgilangan vaqt davomida ishtirokchilar o'zlari tanlagan ixtiyoriy dasturlash tillarida berilgan amaliy topshiriqlarni bajarishdi. 2-tur yakuniy natijalari bo'yicha amaliy sinovlarda ishtirok etgan 14 nafar talabalardan eng yuqori natijalarni qo'lga kiritgan 3 nafar talaba g'olib deb topildi.<br>**1-o'rin** - M.V. Lomonosov nomidagi MDU Toshkent shahridagi filiali talabasi<br>Ashirmatov Akmal Djamaliddinovich - 89 ball; |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | **2-o‘rin** - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU talabasi<br>Abdimanabov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li – 87 ball;<br>**3-o‘rin** - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU talabasi<br>Qodirov Jamshid Alam o‘g‘li – 77 ball.<br>Apellyatsiya komissiyasiga Olimpiadaning 2-turini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishtirokchilar va ularning vakillaridan hech qanday e’tiroz va shikoyatlar tushmadi. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi 201-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |
| **26.** | **Vazirlikning 2022-yil 11-iyundagi 6-son kengaytirilgan Hay’at Kengashi yig‘ilishida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**<br>Mazkur Hay’at qarorlari bandlarining ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni qarorlarda belgilangan muddatlarda vazirlikning tegishli boshqarmalariga va har chorak oxirgi oyining 25-sanasigacha Hay’at kotibiga o‘rnatilgan tartibda to‘liq hisobot taqdim etish vazifasi yuklatilsin. | **28.06.2022** | **Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i L.Jo‘rayev** | Ushbu O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi 201-son buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilingan.<br>Universitetda Hay’at qarorlari bandlarining ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar vazirlikka taqdim etib kelinmoqda. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi 202-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |
| **27.** | **Oliy ta’lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida**<br>oliy ta’lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni faoliyatda foydalanish va ma’lumot uchun qabul qilsin;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining | **21.06.2022** | **O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i A.Ergashev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 610–son (23.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>Amaliyot nizomi ishlab chiqilib tasdiqlandi.(Nusxa ilova qilinadi). Hozirda Magistratura va 4-kurs talabalari amaliyotlari belgilangan tartibdda tashkil etildi. 2 va 3-kurs talabalari amaliyotlari belgilangan tartibda tashkil etilishi to‘g‘risida Amaliyot buyruqlari rasmiylashtirilmoqda. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son qarori bilan oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibini tasdiqlash va uni tashkil etish oliy ta'lim muassasalari vakolatiga o'tkazilganligini hamda ushbu namunaviy nizomni inobatga olgan holda, oliy ta'lim muassasasining ichki nizomini ishlab chiqib, tasdiqlasin hamda talabalar amaliyotini belgilangan tartibda tashkil etilishini ta'minlasin;<br>talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashida tegishli shart- sharoitlar yaratilib berilishi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;<br>fan, o'quv jarayoni va amaliyot integratsiyasini yanada takomillashtirish maqsadida tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqishda amaliy mashg'ulotlar hissasini ko'paytirish choralarini ko'rsin. | | | |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi 206-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 28. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarining tanlov yo'nalishlarini tasdiqlash to'g'risida**<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarining dastlabki bosqichini **joriy yilning 1-avgustiga qadar** o'tkazilishi va talabgorlarni navbatdagi bosqichga tavsiya etishda mazkur buyruq ilovalariga muvofiq tasdiqlangan davlat stipendiyalarining tanlov yo'nalishlari ro'yxatlariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasin. | 21.06.2022 | **Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi G.Axmedjanova** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 586–son (21.06.2022 y) buyruq qabul qilingan. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga binoan 2022-2023-o'quv yili uchun tasdiqlangan tanlov yo'nalishlari magistratura bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalarining tanlov yo'nalishlari ro'yxati 1-ilovaga hamda bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalarining tanlov yo'nalishlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi va nomli davlat stipendiyalarga talabgor talabalar hujjatlari Nizom talablariga rioya etilgan holda yig'ilmoqda va tanlovlarning dastlabki bosqichini joriy yilning 1-avgustiga qadar o'tkazish chorasi ko'rilmoqda. |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi 207-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| 29. | **Mamlakat oliy ta'lim jozibadorligini targ'ib qiluvchi "Study in Uzbekistan" "O'zbekistonda tahsil ol" maxsus veb-portalini ishlab chiqish to'g'risida.**<br>Maxsus web-portalga joylashtiriladigan ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli taqdim etib borsin. | 21.06.2022 | **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor D.Yaxshibayev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 592–son (21.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>Ishchi guruh tomonidan Maxsus web-portalga joylashtiriladigan ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli taqdim etish bo'yicha axborot ma'lumotlari yig'ilgan. **"Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini online tarzda ishga** tushirilishi bilan Universitet tomonidan barcha ma'lumotlar o'z vaqtida va sifatli veb portalga joylashtiriladi. |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-iyundagi 209-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| 30. | **2022/2023-o'quv yili uchun akademik litseylarga o'quvchilarni o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida.** | **20.06.2022** | **Sh.Doniyorov,** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 6–son (20.06.2022 y) buyruq qabul qilingan. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | akademik litseylarga tasdiqlangan qabul parametrlariga qat'iy rioya qilgan holda joriy yil 20-iyundan boshlab o'rnatilgan tartibda 2022/2023-o'quv yili uchun umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarining hujjatlarini qabul qilish choralarini ko'rish;<br>tasdiqlangan qabul parametrlarini ta'lim muassasasining rasmiy web-saytida, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish hamda keng jamoatchilik va ota-onalar e'tiboriga yetkazish;<br>akademik litseylarga abituriyentlarni ro'yxatdan o'tkazishni (hujjatlarini qabul qilish) vazirlikning litsey.edu.uz rasmiy elektron platformasi orqali amalga oshirish;<br>ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarida abituriyentlar va ularning ota-onalariga qulaylik yaratish maqsadida yuqori tezlikdagi internet tarmoqqa ulangan kompyuterlar bilan jihozlangan maxsus xonalarni tashkil qilish va ularga ta'lim muassasasining tajribali xodimlarini biriktirish;<br>o'qishga qabul qilish bo'yicha murojaatlar bilan ishlash, abituriyentlar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollariga tezkor javob berish maqsadida akademik litseylarda "Call-center"lar tashkil qilish choralarini ko'rsin. | | **TATU akademik litsey direktori A.Madraximov** | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, jumladan, 2022/2023-o'quv yili uchun akademik litseylarga tasarrufida ushbu ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning takliflari asosida shakllantirilgan qabul parametrlarini tasdiqlash haqidagi ma'lumotlar hamda 2022/2023- o'quv yili uchun akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-iyundagi 209-sonli buyrug'i ijro uchun qabul qilindi qabul qilindi.<br>- tasdiqlangan qabul parametrlari TATU akademik litseyining https://itlyceum.uz va universitetning tuit.uz saytlarida, https://t.me/tatu_akademik_litseyi rasmiy telegramm kanalida e'lon qilingan;<br>-akademik litseylarga abituriyentlarni ro'yxatdan o'tkazishni (hujjatlarini qabul qilish) vazirlikning litsey.edu.uz rasmiy elektron platformasi orqali amalga oshirilmoqda;<br>-ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarida abituriyentlar va ularning ota-onalariga qulaylik yaratish maqsadida yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar bilan jihozlangan maxsus xonalar tashkil qilingan va ularga tajribali xodimlarni biriktirilgan;<br>-o'qishga qabul qilish bo'yicha murojaatlar bilan ishlash, abituriyentlar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollariga tezkor javob berish maqsadida akademik litseyda "Call-center" lar tashkil qilingan. |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-iyundagi 210-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 31. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qarori va F-60-son farmoyishi ijrosini ta'minlash to'g'risida**<br>**ikki kun muddatda** 2022/2023 o'quv yili uchun ajratilgan qabul parametrlarining tillar kesimidagi taqsimotini shakllantirish hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etish;<br>**ikki kun muddatda** qabul komissiyasi faoliyati, jumladan, "Call center" va maslahat markazlari faoliyati, qabul parametrlari, fanlar majmuasi kabi qabul jarayoniga oid batafsil ma'lumotlarni oliy ta'lim muassasasi rasmiy veb-saytiga alohida "Qabul-2022" bo'limini tashkil etgan holda joylashtirish;<br>**ikki kun muddatda** kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlariga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar fan dasturi va baholash mezonlarini mustaqil tasdiqlash va e'lon qilish (rasmiy veb-saytga joylashtirish);<br>**ikki hafta muddatda** kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan hududlar, bino va auditoriyalarni belgilash, tayyor holatga keltirish, to'liq videokuzatuv kameralari bilan ta'minlash hamda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish bo'yicha komissiyalar raislari va a'zolarini tasdiqlash;<br>2022/2023 o'quv yili qabulini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini **3 kunlik muddatda** ishlab chiqish va uning bajarilishini ta'minlash;<br>oliy ta'lim muassasalarining rektorlari (filial direktorlari) raisligida tashkil etiladigan qabul komissiyalari tarkibini tajribali, halol, pok, | 29.06.2022 | **Telekommunikatsiya texnologiyalari dekani A.Shaxobiddinov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 593–son (21.06.2022 y) buyruq qabul qilingan.<br>Universitet bo'yicha 2022/2023 o'quv yili uchun ajratilgan qabul parametrlarining tillar kesimidagi taqsimoti Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga 18 iyun kuni taqdim etildi.<br>Universitetning 2022/2023 o'quv yili uchun Qabul komissiyasi tarkibi 2022-yil 16-iyundagi 568-sonli buyruq bilan tasdiqlandi va 109-xonada 5 ta raqamli Call center faoliyati yo'lga qo'yildi.<br>Universitetda kasbiy-ijodiy imtihon o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari mavjud emas.<br>Universitetda kasbiy-ijodiy imtihon o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari mavjud emasligi sababli, tarkib tayyorlashga ehtiyoj yo'q.<br>qabul komissiyalari tarkibiga tajribali, halol, pok, mas'uliyatli 39-nafar professor-o'qituvchi va xodimlar jalb qilindi;<br>qabul komissiyalarining tasdiqlangan tarkibining har bir a'zosiga yuklatilgan vazifalar bo'yicha tushuntirish berildi va tegishli materiallar bilan ta'minlandi<br>abituriyentlar haqida ma'lumotlar tayyorlash, jamlash va taqdim etishga mas'ul va ijrochi xodimlarga yo'l qo'yiladigan xatoliklar oqibati va javobgarlik to'g'risida batafsil tushuntirish berildi va yo'riqnoma berish tashkil etildi;<br>2022-yil 20-iyundan abituriyentlar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga tezkor javob berilishini ta'minlash uchun Call center faoliyatini tashkil etildi. Telefon raqami 71-238-55-55 (5 ta kanalli)<br>**Call centerda** bir vaqtning o'zida **beshta mijoz** qo'ng'iroqlariga javob berish imkoniyati mavjud; |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | mas'uliyatli professor-o'qituvchi va xodimlardan shakllantirish;<br>qabul komissiyalarining tasdiqlangan tarkibining har bir a'zosiga yuklatilgan vazifalarni talab darajasida bajarilishini ta'minlash;<br>abituriyentlar haqida ma'lumotlar tayyorlash, ijodiy imtihonlar natijalarini rasmiylashtirish, jamlash va taqdim etishga mas'ul va ijrochi xodimlarga yo'l qo'yiladigan xatoliklar oqibati va javobgarlik to'g'risida batafsil tushuntirish va yo'riqnomalar berishni tashkil etish;<br>**ikki kun muddatda** abituriyentlar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga tezkor javob berilishini ta'minlash uchun **Call center faoliyatini** tashkil etish;<br>**Call centerda** bir vaqtning o'zida **kamida beshtagacha** qo'ng'iroqlarga javob berish imkoniyatini yaratish choralarini ko'rish;<br>tashkil etiladigan **Call center** hamda **maslahat markazlariga** muomala madaniyatiga ega bo'lgan tajribali, mas'uliyatli xodimlarni biriktirish va ularni internet tarmog'iga ulangan kompyuter, ish telefoni, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar nusxalari va boshqa zaruriy materiallar hamda gigiyenik vositalar (sanitariya-zararsizlantiruvchi antiseptik gellar, xlor, sovun, niqob, qo'lqoplar, tozalash uchun antibakterial vositalar va h.k.) bilan ta'minlash;<br>Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 17-son qaroriga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish | | | tashkil etiladigan Call center hamda maslahat markazlariga muomala madaniyatiga ega bo'lgan tajribali, mas'uliyatli xodimlarni biriktirildi, internet tarmog'iga ulangan kompyuter, ish telefoni, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar nusxalari va boshqa zaruriy materiallar bilan ta'minlandi;<br>Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 17-son qaroriga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida 3 nafar mas'ul xodim, jumladan, 1 nafar prorektor belgilandi.<br>oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi mas'ul kotibining alohida o'rinbosari rahbarlik qiluvchi ishchi guruhini tashkil etildi va unda 1 ta prorektor va 2 nafar xodim biriktirildi;<br>tashkil etilgan ishchi guruhi a'zolarining asosiy vazifalari va mas'uliyatlarini aniq belgilandi;<br>ro'yxatdan o'tgan arizalarni muntazam tahlil qilib borish va shunga muvofiq suhbat komissiyalarini tashkil etish va ularning belgilangan Nizom talablariga muvofiq faoliyat olib borishlarini lozimligi nazoratga olindi;<br>suhbat jarayonlarini to'liq videokuzatuv asosida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rilmoqda;<br>suhbat jarayonlari boshlangunga qadar Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom ilovalariga muvofiq zarur bo'lgan hujjatlar tayyorlanishi nazoratga olindi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida:<br>oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi mas'ul kotibining alohida o'rinbosari rahbarlik qiluvchi ishchi guruhini tashkil etish;<br>tashkil etilgan ishchi guruhi a'zolarining asosiy vazifalari va mas'uliyatlarini aniq belgilash;<br>ro'yxatdan o'tgan arizalarni muntazam tahlil qilib borish va shunga muvofiq suhbat komissiyalarini tashkil etish va ularning belgilangan Nizom talablariga muvofiq faoliyat olib borishlarini ta'minlash;<br>suhbat jarayonlarini to'liq videokuzatuv asosida o'tkazilishini ta'minlash;<br>suhbat jarayonlari boshlangunga qadar Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom ilovalariga muvofiq zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlash vazifalari yuklatilsin. | | | |

**Rektor v.b.** **B.Maxkamov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI * MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI *

Ijrochi:L.Jo'rayev
712386562